

ISSIQLIK ENERGIYASINI ISSIQ SUV SHAKLIDA YETKAZIB BERISH TO'G'RSIDA

№ T 2 / 783-22 sonli SHARTNOMA

Navoiy shahri.

2022 yil «17» yanvar

"Issiqlik Manbai" Davlat unitar korxonasi nomidan, 06.01.2022 yildagi № 02-22/11-22 sonli ishonchnoma asosida ish yurituvchi "Issiqlik Manbai" DUK Navoiy filiali boshlig'i Axmedov Sherzod Rajabboevich, bundan keyin "**Ta'minotchi**" deb yuritiladi, bir tomonidan Navoiy davlat pedagogika instituti Akademik litseyi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi "Issiqlik ta'minoti tashkilotining subabonenti" direktori Maxammatkulov F.B., bundan keyin "**Iste'molchi**" deb yuritiladi, tomonlar ushbu shartnomani quyidagicha tuzdilar:

1.SHARTNOMA MAVZUSI.

1.1."Ta'minotchi" va "Iste'molchi" issiqlik energiyasini issiq suv shaklida yetkazib berish va iste'mol qilish bo'yicha ushbu shartnomani tuzdilar. Ushbu shartnomada ko'rsatilmagan masalalar bo'yicha, ushbu shartnomani bajarishda tomonlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.08.09 yildagi 245-sonli qarori bilan tasdiqlangan amaldagi "Issiqlik energiyasidan foydalanish qoidalarini" O'zbekiston Respublikasi hududida va O'zbekiston Respublikasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyati va munosabatlarini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy hujjatlar boshqarishini o'z zimmlariga oladilar.

1.2. "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ga 2022 yil 1 yanvardan boshlab, 2022 yil 31 martigacha bo'lgan davrda, maksimal 0,354 Gkal / soat, issiqlik yuklamasi bilan issiqlik energiyasini issiq suv shaklida yetkazib berishni o'z zimmasiga oladi.

Shundan:

- a) Issiq suv ta'minoti uchun 0,083 Gkal / soat
- b) Isitish uchun 0,271 Gkal / soat

Shahar binolarini har xil maqsadlarda isitish davrining boshlanishi va tugashi, Navoiy viloyat hokimining qaroriga muvofiq belgilanadi.

1.3. "Iste'molchiga" isitish uchun yetkazib beriladigan issiqlik energiyasining sifati issiqlik ta'minoti tashkiloti - Navoiy IES tomonidan belgilanadi.

1.4. Issiqlik energiyasini iste'mol qilish hajmi "Ta'minotchi" bilan kelishilgan "Iste'molchining" yozma buyurtmasiga binoan belgilanadi va quyidagicha taqsimlanadi:

Issiqlik energiyasining hajmi		
Davr	Isitish, Gkal	Issiq suv ta'minoti, Gkal
1 kvartal	133,32	11,60
yanvar	55,10	5,20
fevral	50,20	4,30
mart	28,02	2,10
2 kvartal	-	-
aprel	-	-
may	-	-
iyun	-	-
3 kvartal	-	-
iyul	-	-
avgust	-	-
sentabr	-	-
4 kvartal	-	-
oktabr	-	-
noyabr	-	-
dekabr	-	-
Jami: uch oy uchun	133,32 Gkal	11,60 Gkal

2. ISSIQLIK ENERGIYASIDAN FOYDALANISH UCHUN HISOB-KITOBLAR

2.1. Issiqlik energiyasi hajmini hisobga olish tomonlarning ekspluatatsion javobgarligi bo'linmasi chegaralarida, issiqlik energiyasini hisobga olish punktlarida o'rnatilgan hisobga olish uskunasi (hisoblagichni) ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi. Hisoblagichlarni o'rnatishda balans chegarasida bo'lmagan, issiqlik tarmog'i bo'limidagi yo'qotishlarni hisobga olgan holda balans bo'limi chegarasidan o'rnatish joyiga qadar amalga oshiriladi.

2.2. Issiqlik energiyasini hisobga olish uskunalari (hisoblagichlari) bo'lmagan taqdirda - issiqlik energiyasining hisoblagichi bo'lmagan yuridik shaxslarga, issiqlik energiyasini yetkazib berish uchun belgilangan tarifning ikki baravar miqdorida qo'llanilgan holda amalga oshiriladi (asos: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.11.13 yildagi 300-sonli "Respublika issiqlik ta'minoti tizimini takomillashtirish va issiqlik ta'minoti korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori).